

## FITRATNING "ADABIYOT QOIDALARI", "ARUZ HAQIDA" ASARLARINI O'RGANISH

Nortosheva Muqaddas Vohid qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti

Yo'nalishi birinchi bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li**

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o'qituvchisi

### ANOTATSIYA

Mazkur maqolada Fitratning adabiyot qoidalari, barmoq vazni va aruz ilmi haqidagi fikrlari o'rjanilgan. Ular misollar asosida yoritilib berilgan. San'at tushunchasiga ta'riflar berilgan. Aruz ilmi bilan barmoq vazni bir biriga solishtirib o'rjanilgan. Har tomonlama atamalarga alohida izohlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiyot, jadid, san'at, uslub, barmoq vazni, aruz, sochim, she'riy tizim.

Abdurau Fitrat Yangi Milliy Uyg'onish davrining buyuk vakilidir. U xalqni ma'rifatli qilish uchun kurashgan jadidchilarimizdan biri edi. U "Chig'atoy gurungi" nomli til, adabiyot masalalari to'g'risidagi jamiyatga rahbarlik qilgan. Ko'pgina ilmiy asarlar yaratgan. Har bir asarida insonni hurlikka, erkinlikka undovchi fazilatlar yotadi. Sovet tizimining nohaqliklaridan ertangi kunga bo'lgan ishonchi so'ngan xalqni umidlarini uyg'otadi. Fitratning birgina maqsadi sho'rolar davrida ezilayotgan xalqning ilm-ma'rifat bilan o'z huquqlarini bilib, o'zлari mustaqil fikrlay olsalar bas edi. Shu sababli u adabiy asarlardan tashqari bir qator ilmiy asarlar ham yaratdi. Uning "Adabiyot qoidalari" nomli ilmiy asari XX asrning 20-yillarda yozildi. Ushbu asarda nomidan kelib chiqib adabiyot qoidalari, adabiy unsurlar, sochim, uslub, san'at, yozish qoidalari va yana shunga o'xshash bir qator tushunchalar yoritib berilgan. Adabiy tur, syujet, kompozitsiya kabilalar ham asarda misollar bilan tushuntirilgan.

Fitrat ushbu asarida biz uchun bugungi kunda keng ma'noda qo'llanilayotgan san'at tushunchasiga ta'rif berib o'tadi; "San'at lug'atda hunar demakdirkim: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. Bir kishi bir ishni o'ziga kasb qilib olib, shunga berilib, yaxshi ishlab chiqaraturg'on bo'lsa, shu ish uning san'ati bo'ladir"

Ya'ni u bu jumlalar bilan san'atni hunar atamasi bilan bog'laydi. Chunki biror bir sohada, ma'lum bir ishni o'z hunarimiz bilan mukammal darajada bajaramiz. Aynan mana shu xususiyat haqiqiy san'atdir. Shu jihatdan bo'lsa kerak, Fitrat san'atni hunar bilan taqqoslab o'rjanadi.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov Fitrat fikrlarini o'rganib, o'zinig san'at tushunchasi haqidagi fikrlarini aytib o'tadi. U san'at so'zini turli ma'no qirralarni ifodalaydigan tushuncha deb qaraydi. Uni "go'zallik", "mahorat", "did" kabi uchta unsur bilan bog'lab o'rganadi. Lug'aviy ma'no emas, aksincha, istilohiy ma'no jihatdan san'atni insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartish) ga qaratilgan yaratuvchanlik faoliyati hamda uning natijasi o'laroq vujudga kelgan narsalar jami deb ta'kidlaydi. Ya'ni biz birorta rasm, haykal, ilmiy asar yaratsak, bu ham bir san'at. D. Quronov ham aynan mana shu narsani tushuntirib bergen. Umuman olganda, "san'at" tushunchasining lug'aviy ma'nosini, izohini ilmiy tarzda, alohida bir mavzu sifatida o'rganib chiqqan inson, albatta, Fitratdir. U "Adabiyot qoidalari" asaridagi nafaqat san'at mavzusini, balki ushbu asardan joy olgan barcha mavzularni xuddi shu kabi keng yoritib bergen. Aynan shu jihatdan bu asar bugungi kunda darslik sifatida foydalanib kelinmoqda. Darslikda o'z davri Sharq va G'arb adabiyoti nazariyasi muammolari yoritilgan. O'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlari, grammatik-stilistik qurilishi, barmoq she'riy tizimi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Fitrat barmoq vaznini o'rganish bilan bir qatorda aruz ilmini ham mukammal tarzda, mahorat bilan o'rgangan. Bu haqida bat afsil uning "Aruz haqida" nomli ilmiy risolasidan bilishimiz mumkin. "Tanlangan asarlari" to'plamiga kiritilgan ushbu asarda, aruz, uning qoidalari, bahrlari, vazn nazariyasi, aruz tarixidan saboq beriladi. Bu asar 1936-yilda yaratilgan. Asar boshlanishidanoq, taqqoslash, qiyoslashlar bilan boshlangan. Ya'ni aruz tizimini barmoq she'riy tizimi bilan solishtiradi, har ikkalasiga alohida izoh berib, bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarni aytib o'tadi. "Barmoq vazni shoirlari hijolarning soniga ahamiyat beradilar. Va bir misrani tashkil qilgan ma'lum bir miqdordagi hijolarni turoqlar vositasi bilan ayrim to'plamlarga ajratadilar -da, turoqlarning joyini belgilash kerak bo'lgan ohangni ta'min etadilar. Aruz vaznida esa hijolarning ahamiyati bilan sifati ayni darajada asosiy rol o'ynaydi. Misralarda hijolarning soni e'tiborga olingani kabi qisqa va to'liq hijolarning tizilish tartibi ham o'zgargancha yangi-yangi vaznlar maydonga keladi. Mana shu xususiyat barmoq vazni sistemasida yo'q". Shu kabi jumlalar bilan Fitrat o'z fikrini qilar ekan, aruz vaznining mukammal she'riy tizim ekanligini ta'kidlaydi. Chunki aruz arab she'riyatiga xos vazndir. U Fitrat tariflaganidek, vazn turkumi deb ataluvchi 16 ta bahr dan tashkil topgan. Ushbu 16 bahrning 5 tasidan arablar deyarli foydalanmagan.( madid, tavil, basit, vofir, komil) Keyinchalik o'zlarining milliy vaznlari jadid, qarib, mushokil kabilarni arab bahrlari soniga qo'shishgan. Shu bilan arab-fors aruzi 19 bahr dan iborat bo'lgan. Har bir fikrni aniq faktlar, misollar bilan keltirib o'tgan Fitrat bu ilmni o'zi ham mukammal o'rganib chiqqan. Va albatta, o'zining mashaqqatli mehnati tufayli ushbu asari aruzshunoslik sohasidagi ilmiy kitoblar qatoridan joy olgan.

Biz Fitratning yuqorida ko'rib o'tgan ikki asari bugungi kunda adabiyot havasmandlari tomonidan o'qib, o'rganilib kelinmoqda, ulardan qo'llanma sifatida foydalanilmoqda.

Fitrat hayotini o'rgangan olimlar uning ijodini 3davrga bo'lib o'rganishadi; 1-davr 1909-1916-yillar, jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan davri, 2-davr 19017-1923-yillar, milliy istiqlol g'oyalari ulug'langan asarlar yaratgani va nihoyat, 3-davr 1923-1937-yillar, umrini ilmiy asarlarga bag'ishlagan davri. Aynan mana shu davrda uning "Adabiyot qoidalari", "Aruz haqida" nomli risololari yaratildi. Bu asarlar adabiyotimiz kutubxonasining eng noyob durdonalari bo'lib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Fitrat "Adabiyot qoidalari ". T: 1995.20-b
2. A. Fitrat "Aruz haqida ". T: O'qituvchi. 1997.18-b
3. D. Quronov "Adabiyotshunoslikka kirish". T: Toshkent. 2004.56-b
4. Adabiyot nazariyasi. 2tomlik 2-tom. T: Toshkent 1979. 349-b
5. A. Fitrat "Tanlangan asarlar" T: Toshkent "Ma'naviyat" 2009. 11-